



V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Hududlar bo'yicha 2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **22 984** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 540** tani tashkil etdi. Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 329** tani yoki jamiga nisbatan **18,8 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



2024- yilning yanvar-iyuni oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **13,3** %, Yangiariq tumani – **10,4** %, Urganch tumani – **9,5** %, Shovot tumani – **9,5** %, Bog'ot tumani – **8,3** %, Gurlan tumani – **7,6** %, Hazorasp tumani – **7,5** % hissalariga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Urganch sh.	28,2
Xiva sh.	17,8
Bog'ot	11,0
Gurlan	12,0
Qo'shko'pir	12,5
Urganch	13,6
Hazorasp	8,6
Tuproqqal'a	13,8
Xonqa	11,6
Xiva	12,4
Shovot	11,8
Yangiariq	14,6
Yangibozor	16,1

2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 13,7 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yil 1- iyun holatiga nisbatan 0,3 birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 28,2 birlik, Xiva shahrida 17,8 birlik, Yangibozor tumanida 16,1 birlik, Yangiariq tumanida 14,6 birlik va Tuproqqal'a tumanida 13,8 birlikka yetdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2024- yil 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan	2024- yil yanvar - iyun	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	33 442	3 540	1 325
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	6099	470	156
Xiva	2636	211	63
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	2364	292	98
Gurlan	2309	269	104
Qo'shko'pir	2734	252	118
Urganch	3724	336	123
Hazorasp	2075	264	117
Tuproqqal'a	806	76	34
Xonqa	2422	233	104
Xiva	2452	237	74
Shovot	2187	336	120
Yangiariq	2048	370	135
Yangibozor	1586	194	79

2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 3 540 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 470 ta, Shovot tumanida 336 ta, Urganch tumanida 336 ta, Bog'ot tumanida 292 ta, Hazorasp tumanida 264 ta, Gurlan tumanida 269 ta, Xiva tumanida 237 ta, Xiva sh. 211 ta, Xonqa tumanida 233 ta, Qo'shkupir tumanida 252 ta, Yangiariq tumanida 370 ta, Yangibozor tumanida 194 ta va Tupraqal'a tumanida 76 tani tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 66,6 foizi (2023- yil yanvar-iyunda 66,8 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2024- yilning yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 469,1 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 20,7 foizi) tashkil qildi;

- 11 192,6 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) boʻlib, oʻsish surʼati 104,8 foizni (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari yalpi mahsulotining 99,4 foizi) tashkil qildi;

- 3 138,7 mlrd.soʻmlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalarha jmining 52,2 foizi) oʻzlashtirildi va 2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 142,9 foizni tashkil qildi;

- 2 609,0 mlrd.soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 87,9 foizi) bajarildi va 2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 101,4 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,5 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,6 foizi), yoʻlovchi aylanmasining esa 102,0 foizga (umumiy yoʻlovchi aylanmasining 95,7 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 96,1 foizi yoki 5 821,2 mlrd. soʻmi (oʻsish 110,2 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 57,5 foizi yoki 4 207,9 mlrd. soʻmi (oʻsish 112,4 foiz) shakllantirildi;

- 97,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 57,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 104,5 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 50,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik
subyektlarining ulushi**

(2024- yilning yanvar- iyunida)

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	11 192,6	99,4
Sanoat	2 469,1	20,7
Qurilish	2 609,0	87,9
Chakana savdo	5 821,2	96,1
Yuk tashish, mln tn.	17,8	94,5
Yo‘lovchi tashish, mln.kishi	214,5	94,2
Eksport, mln. AQSh doll.	97,6	57,5
Import, mln. AQSh doll.	104,5	50,1

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da

